

GLOBAL O'ZGARISHLAR VA YOSHLARNING MA'NAVİY-MA'RIFIY TARBIYASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ZARURATI

Akbaraliyev Jamshidbek

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15037711>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish – mamlakat taraqqiyoti va barqarorligining muhim omili ekanligi, shuningdek, globallashtirish sharoitida ma'naviy tahdidlar va ularning asosiy yo'nalishlari hamda ichki ma'naviy tahdidlar: ko'rinishlari va sabablari haqida so'z boradi. Maqola davomida mafkuraviy immunitet va tarixiy xotiraning ma'naviy tahdidlardan himoya vositasi sifatidagi o'rniga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mafkuraviy immunitet, ma'naviy tahdidlar, tarixiy xotira, mamlakat taraqqiyoti.

GLOBAL CHANGES AND THE NEED TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EDUCATION OF YOUTH

Abstract. This article discusses the fact that protecting young people from spiritual threats is an important factor in the development and stability of the country, as well as spiritual threats and their main directions in the context of globalization, as well as internal spiritual threats: their manifestations and causes. The article also specifically addresses the role of ideological immunity and historical memory as a means of protection against spiritual threats.

Keywords: ideological immunity, spiritual threats, historical memory, national development.

ГЛОБАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ И НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос о том, что защита молодежи от духовных угроз является важным фактором развития и стабильности страны, а также духовные угрозы и их основные направления в условиях глобализации, а также внутренние духовные угрозы: их проявления и причины. В статье также отдельно рассматривается роль идеологического иммунитета и исторической памяти как средства защиты от духовных угроз.

Ключевые слова: идеологический иммунитет, моральные угрозы, историческая память, национальное развитие.

Bugungi kunda dunyo jadal rivojlanib borayotgan davrda, global o'zgarishlar jamiyatning har bir sohasiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Yangi texnologiyalar, madaniy va iqtisodiy o'zgarishlar, global muammolar kabi omillar yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotga bo'lgan munosabatini shakllantirmoqda.

Shuning uchun yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib turibdi. Tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish va yoshlarni to'g'ri yo'naltirish uchun global o'zgarishlarni inobatga olgan holda yangi yondashuvlar va metodikalarga ehtiyoj bor.

Global o'zgarishlar – bu nafaqat texnologik, balki madaniy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar hamdir. Internetning rivojlanishi, raqamli texnologiyalar va global tarmoqlar yoshlarning fikr va qarashlarini tezda shakllantirayotgan omillardan biridir. Bular yoshlarning dunyoqarashiga, shaxsiy qadriyatlariga ta'sir ko'rsatadi, ularga yangi imkoniyatlar yaratadi, biroq shu bilan birga, xavf-xatarlarni ham yuzaga keltiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan olamshumul o'zgarishlar, shahar va qishloqlarimizning qiyofasi tobora chiroy ochib, aholimizning farovonligi yuksalib borayotgani haqida gapirganda, bunday yangilanishlarning g'oyat muhim manbalari – avvalo, odamlarimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi va kayfiyati tubdan o'zgarib, ularning yon-atrofimizda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga daxldorlik hissi, ertangi kunga munosabati va ishonchi tobora mustahkamlanib, siyosiy saviyasi va huquqiy madaniyati o'sib borayotgani haqida alohida to'xtalishni o'rinli deb bilaman.

Globallashuv jarayonlari jamiyatning mafkuraviy va ma'naviy hayotida o'z g'oya hamda mafkuralarini singdirish, ta'sir doiralarini kengaytirishda muhim halqa bo'lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda globallashuv jarayoni bilan bog'liq ziddiyatlar ko'proq ma'naviy-ma'rifiy sohalarida o'z ifodasini topayotganini guvohi bo'lyapmiz. Globallashuvning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi uchun quyidagi omillardan foydalanilmoqda:

- Informatsion vositalarning yuksak rivojlanishi orqali;
- mafkuraviy manipulyatsiya jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga bo'lgan e'tiborning kuchayishi;
- Demokratiya niqobi ostida «ommaviy madaniyat»ning turli ko'rinishlarining yoshlar orasida keng tarqalishi;
- Yoshlar o'rtasida taqlidchilik, g'arb ideallariga ko'r-ko'rona ergashish va b.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, XXI asrda internetdan foydalanuvchilar soni dunyo aholisining qariyb 20 foizini tashkil qilib, ular kundan kunga ko'payib bormoqda.

Mamlakatimizda yoshlar ma'naviyati va ruhiyatiga salbiy ta'sir qiluvchi, g'arazli maqsadlar ko'zlangan ayrim ko'rinishdagi axborotlar xurujini quyidagilarga ajratish mumkin:

- axborot va informatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan;

- tasvirli ovoz ko'rsatuvlar bilan bog'liq bo'lgan;
- “san’at” ning ayrim turlari bilan bog'liq bo'lgan;

Demak, internetdan foydalanuvchilarning xohish-istagidan qat'iy nazar, pornografik mazmundagi saytlar ularning diqqatini torta oladi. Shuning uchun ham internet va boshqa kommunikatsiya vositalarining yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri bir qator rivojlangan davlatlarda ham e'tirof etilmoqda. Bunday xavf-xatarlarga beparvo munosabatda bo'lish, ularni tahdid manbai sifatida e'tirof etmaslik milliy taraqqiyotga salbiy ta'sir etishi mumkinligini nazarda tutib, shunday deydi: “Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana va yana bir bor xalqimizning ma'naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, hozirgi o'ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi”.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning ko'plab asarlarida ma'naviy tahdidlar va ularni keltirib chiqaruvchi omillar, undan ko'zlangan maqsad va vazifalar, uni amalga oshiruvchilarning usullari, globallashuv sharoitida ularni oldini olish hamda bartaraf etish choralari kabi masalalar o'z aksini topgan.

Shunday ekan, internet va boshqa axborot kommunikatsiya vositalarining yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga, ma'naviy – axloqiy tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta'siri imkoniyatlarini o'rganish muhim nazariy, metodologik va amaliy ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

Ya'ni, bugungi kunda dunyo nafaqat iqtisodiy munosabatlarning, balki mafkuraviy jarayonlarning ham globallashuvi, insoniyatning siyosiy, madaniy va ma'naviy hayotiga oid barcha sohalarining integratsiyalashuvi bilan xarakterlanadi.

Bir tomondan, insoniyatning tarixida qo'lga kiritilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarning integratsiyalashuvi ro'y bermoqda, ikkinchidan, jahon maydonida turli millatlarning kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy g'oyalarning ham globallashuvi sodir bo'lmoqda. Demak, globallashuv bir tomondan umumiy taraqqiyotga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa ma'naviy tubanlik va axloqsizlikni o'z ichiga olgan “Ommaviy madaniyat” mafkurasining kirib kelishini tezlatishga xizmat qilmoqda. Kompyuter texnologiyalari, kino, estrada, internet orqali “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan mafkuraviy, ma'naviy tahdidlar bevosita yosh avlod ma'naviyatiga yot g'oyalarni singdirishga xizmat qilayotgani ma'lum. Odamlar ongiga ta'sir qiluvchi turli xildagi axborot vositalari, tasvirli va ovozli uzatish moslamalari, kompyuter, uyali telefon va hokazolar manipulyatsiyaning – ma'naviy hukmronlik o'rnatishga bo'lgan yovuz xurujning zamonaviy qurollariga aylantirildi.

Bugungi kunda “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida yurtimizga kirib kelayotan xurujlar asosan quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda:

- moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan ayrim siyosiy kuchlarning g‘arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ommaviy madaniyatdan foydalanish;
- yoshlarning ongi va tafakkurini, ma’naviy olamini izdan chiqarib,
- soxta g‘oya va mafkuralarni targ‘ib etishga urinish;
- g‘arazli maqsadlarni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnolo - giyalaridan keng foydalanish;
- ma’naviy tarbiya, mustaqil tafakkurni izdan chiqarishga urinish.

Global o‘zgarishlar davrida yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni faqat ilmiy bilimlar bilan ta’minlash kifoya qilmaydi, balki ularning ma’naviy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlash zarur. Ta’lim tizimlari, oila va jamiyat birgalikda yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirishi, ularning yuqori ma’naviy qadriyatlar bilan tarbiyalanishi kerak. Shunda jamiyatimizning kelajagi ravon va barqaror bo‘ladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2012 y.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T.1997-yil
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25 - avgustdagi “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 451 - sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999- yil 3 - sentyabrdagi Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” PF-2385-sonli Farmoni